

KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**VI RESPUBLIKA ILMIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

AVGUST, 2025

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiylar.com>



KONFERENSIYALAR .COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

**VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

TOSHKENT-2025

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rinni organ bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan. Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huqular himoyalangan.
© Scienceproblems team, 2025-yil
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil

MUNDARIJA

TEXNIKA FANLARI

Bozorboyev Abbosjon, Ravshanov Shavkat

*KUNJUT O'SIMLIGINING XUSUSIYATLARI VA UNING HOSILINI YIG'ISHTIRIB OLISHDAGI
MUAMMOLARI.....* 6-9

Iskandarov Orifxon

TIRIKOTAJ MATOLARIDA SIFAT NAZORATI..... 10-12

Odinayev Mirjalol

*"AI-TRANSLATE" TEXNIK HUJJATLARNI SUN'YI INTELLEKT ORQALI AVTOMATIK TARJIMA
QILISH VA HUQUQIY MASLAHATLAR AXBOROT TIZIMI – TEXNIK JIHATDAN TARTIBGA
SOLISHDA INNOVATSION YECHIM* 13-18

QISHLOQ XO'JALIGI FANLARI

Karimov Nurbek

TURLI USULDA YERGA ISHLOV BERISHNI SOYA PARVARISHLANGAN MAYDON

TUPROG'INING SUV O'TKAZUVCHANLIGIGA TA'SIRI 19-22

TARIX FANLARI

Bobojonova Zuxra

TEMURIY MALIKALARLING HUKMDORLAR HAYOTIDAGI O'RNI..... 23-25

Xalilov Baxodir

*ZAMONAVIY KUTUBXONALARLING MAKTABDAN TASHQARI TA'LIMDAGI O'RNI: NAVOIY
VILOYATI MISOLIDA* 26-31

Xoliqova Ra'noxon

*"MARKAZIY OSIYODA SUN'YI INTELLEKT TUFAYLI AYOLLAR IMKONIYATLARI: STEM TA'LIMI,
GENDER TENGLIGI VA IQTISODIY FAOLLIK SSENARIYLARI"* 32-34

Xasanova Nargiza

YANGI DAVR: ILM-FANI INNOVASIYALARIDA AYOL-QIZLAR ISHTIROKINING DOLZARB

AHAMİYATI..... 35-38

IQTISODIYOT FANLARI

Salomov Temurbek

THE ROLE OF PILGRIMAGE TOURISM IN ENHANCING THE SERVICE SECTOR:

A CASE STUDY OF UZBEKISTAN..... 39-43

Raxmanov Ulugbek

*TIJORAT BANKLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINING HISOBVARAQLAR REJASIGA MUVOFIQ
TAHLILIY AVTOMATLASHTIRILGAN NAZORAT MEXANIZMINI YARATISH* 44-45

Toshtemirov To'lqin

KICHIK TADBIRKORLIK SUB'EKTALARINING SUN'YI BO'LINISH MUAMMOLARI..... 46-49

Mansurova Sayyora

*INNOVATSION PROPTECH-PLATFORMALAR VA
ULARNING KO'ChMAS MULK BOZORIGA TA'SIRI* 50-53

Rajabov Alibek

INNOVATSION IQTISODIYOTNI SHAKKLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARIH..... 54-57

Ochilov Mels, Sayfiyeva Parizoda

*EFFECTS OF INDUSTRIAL POLICY ON THE INVESTMENT ENVIRONMENT: LESSONS FROM
GLOBAL EXPERIENCES.....* 58-60

FALSAFA FANLARI

Abdullayev Sodiqjon

MILLIY O'ZLIKNI TIKLASH JARAYONIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA SALOMATLIK QADRIYATLARI..... 61-66

Gafurova Munojat

O'ZBEKİSTONDA GENDER TENGLİGINI TA'MINLASHDAGI JAMIYAT VA DAVLAT O'RTASIDAGI DIALEKTİK MUNOSABATLARI..... 67-70

Davronov Bahodir

SUN'İY INTELLEKT YORDAMIDA AXBOROT MUHİTİNİNG GUMANİTAR QADRIYATLARGA NISBATAN ASİMMETRİK MUNOSABATI..... 71-76

Latipov Sardor

KORRUPSIYANING TARIXAN SHAKLLANISHI VA TURLARI 77-81

FILOLOGIYA FANLARI

Xoliyorova To'lg'anoy

O'ZBEK TİLİ MILLIY KORPUSINING TA'LIM VA ILMİY TADQIQOTLARDAGI O'RNI..... 82-83

Ro'ziyev Temur

ADABIY-ESTETIK QARASHDA TAFAKKUR VA TUYG'UNİNG O'RNI 84-92

Gulmuradova Sobira

"XUSHKELDI" DOSTONI MATNI TARKIBIDAGI ETNOGRAFİZMLARNING MILLİY - MADANIY XUSUSİYATLARI..... 93-95

Qosimova Malika

SINXRON TARJIMADA MASHINA TARJIMASINING AFZALLIKLARI XUSUSIDA 96-99

Bahromjonova Shahnoza

*HODI ZARIF VA YANAGITA KUNIO ILMİY MEROSI:
FOLKLORSHUNOSLIKDA QIYOSIY TAHLİL* 100-102

Ayimbetova Damekhan

*ZAMONAVIY INGLIZ SHE'RIYATIDA HAYVONLARNI
TASVIRLASHNING O'ZIGA XOSLIKLARI* 104-107

YURIDIK FANLARI

Komilov Avazbek

*INTIZOMİY JAVOBGARLIK TO'G'RISIDA ISH QO'ZG'ATISH HAqidagi qaror,
UNING SHAKLI VA MAZMUNIGA NISBATAN TALABLAR*..... 108-110

Shamsitdinova Manzura

TEACHING LISTENING COMPREHENSION 111-112

Xadjiyev Azizbek

"IJTIMOIY ADOLAT" TAMOYILINING XALQARO QONUNCHILIK AMALIYOTIDA YORITILISHI..... 113-116

Уктамов Комрон

РЕГУЛИРОВАНИЕ ТРАНСГРАНИЧНЫХ ВОД ПЕРВЫМ ВОДНЫМ КОДЕКСОМ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН..... 117-123

<i>Исмоилов Бекрузбек</i>	
<i>ОСОБЕННОСТИ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ТЕЛЕКОММУНИКАЦИОННЫХ УСЛУГ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....</i>	<i>124-129</i>
PEDAGOGIKA FANLARI	
<i>Qo'shmurodova Aziza</i>	
<i>BOSHLANG'ICH SINFLARDA VATANGA MUHABBAT TUYG'USINI SHAKLLANTIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INTEGRATSİYALASHGAN TA'LIM METODLARINI QO'LLASH.....</i>	<i>130-133</i>
<i>Mamatqosimova Nodira</i>	
<i>SSENARIY YARATISHDA BADIY ADABIYOT NAMUNALARIDAN FOYDALANISH USULLARI</i>	<i>134-137</i>
<i>Sattoriy Shohruh</i>	
<i>TA'LIM SIFATI USTIDAN NAZORAT MEXANIZMLARINI BOSHQARISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....</i>	<i>138-141</i>
<i>Jabborova Umida</i>	
<i>TEXNOLOGIYA DARSLARIDA O'QUVCHILARNING TEXNIK SAVODXONLIGINI ROBOTOTEXNIKA ELEMENTLARI ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING DIDAKTIK IMKONIYATLARI.....</i>	<i>142-144</i>
<i>Xujanazarova Nozima</i>	
<i>RAQAMLI PLATFORMALARDA IQTISODIY MATNLARNI TARJIMA QILISHGA YO'NALTIRILGAN INTERAKTIV O'QUV TOPSHIRIQLARI VA KEYS-STADIYALARINI YARATISH.....</i>	<i>145-148</i>
<i>Aripjanova Dinora</i>	
<i>RAQOBATBARDOSH RAHBAR SHAXSINI SHAKLLANTIRISHDA MOTIVATSIYA MEXANIZMLARINING SAMARALI MODELI.....</i>	<i>149-151</i>
<i>Dosanova Gulbanu</i>	
<i>OLIY TA'LIM MUASSASALARI TALABALARIDA AXBOROT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING DIDAKTIK SHART-SHAROITLARI.....</i>	<i>152-154</i>
<i>Isokov Ravshanbek</i>	
<i>INNOVATIVE APPROACHES TO FOSTERING HISTORICAL MEMORY AND CULTURAL IDENTITY IN STUDENTS.....</i>	<i>155-160</i>
TIBBIYOT FANLARI	
<i>Urunbayeva Dilorom, Xudaybergenova Shaxnoza</i>	
<i>XOSHIMOTO TIREOIDITINING KECHISHIDA RUXNING O'RNI.....</i>	<i>161-163</i>
<i>Nabiyeva Umida</i>	
<i>GIPERTONIYANING KELIB CHIQISHI VA OLDINI OLISHNING ZAMONAVIY TAMOYILLARI.....</i>	<i>164-166</i>
PSIXOLOGIYA FANLARI	
<i>Polvanov Rasulbek</i>	
<i>INTERNET QARAMLIGI VA SHAXSNING IJTIMOIY MOSLASHUVIGA TA'SIR QILUVCHI OMILLAR ZAMONAVIY MAUGLI SINDROMI KONTEKSTIDASH</i>	<i>167-172</i>
<i>Усманова Лилия</i>	
<i>ТИПОЛОГИЯ СЕМЬИ В УЗБЕКИСТАНЕ: ТРАДИЦИИ, ТРАНСФОРМАЦИИ И СОВРЕМЕННЫЕ ВЫЗОВЫ.....</i>	<i>173-176</i>

FALSAFA FANLARI

MILLIY O'ZLIKNI TIKLASH JARAYONIDA EKOLOGIK TAFAKKUR VA SALOMATLIK QADRIYATLARI

Abdullayev Sodiqjon Maxmudovich

Namangan davlat universiteti tibbiyot fakulteti,
Klinik fanlar kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Tezisda mustaqillikdan keyingi davrda milliy o'zlikni tiklash jarayonida ekologik tafakkur va salomatlik qadriyatlarining tutgan o'rni ijtimoiy-falsafiy nuqtai nazardan tahlil qilinadi. Global ekologik muammolar fonida atrof-muhitga nisbatan mas'uliyatli munosabat shakllanishi, nafaqat tabiatga, balki inson salomatligiga nisbatan ongli yondashuvni ham talab etadi. Shu munosabat bilan tezisda ekologik madaniyat, biologik xilma-xillikni asrash, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish orqali jamiyatda barqaror salomatlik qadriyatlarini rivojlantirish imkoniyatlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: milliy o'zlik, ekologik tafakkur, salomatlik qadriyatları, ekologik madaniyat, sog'lom turmush tarzi, barqaror rivojlanish, falsafiy yondashuv, tabiat va jamiyat dialektikasi.

ECOLOGICAL THINKING AND HEALTH VALUES IN THE PROCESS OF RESTORATION OF NATIONAL IDENTITY

Abdullayev Sodiqjon Makhmudovich

Namangan State University, Faculty of Medicine,
Senior Lecturer, Department of Clinical Sciences

Annotation. The thesis analyzes the role of ecological thinking and health values in the process of restoring national identity in the post-independence period from a socio-philosophical perspective. Against the background of global environmental problems, the formation of a responsible attitude towards the environment requires a conscious approach not only to nature, but also to human health. In this regard, the thesis considers the possibilities of developing sustainable health values in society through ecological culture, preservation of biodiversity, and adoption of a healthy lifestyle.

Key words: national identity, ecological thinking, health values, ecological culture, healthy lifestyle, sustainable development, philosophical approach, dialectics of nature and society.

Kirish: Zamonaviy dunyo insoniyat sivilizatsiyasining keskin burilish nuqtasida turibdi — bu o'zgarishlar, bir tomondan, texnologik yuksalish, raqamli transformatsiya va ilm-fan taraqqiyoti orqali ijobiy tafakkur yuksalishini ifodalasa, ikkinchi tomondan, ekologik inqiroz, sog'liq muammolari va milliy qadriyatlar tanazzuli orqali global xavflarning keskinlashuviga olib kelmoqda. Ayniqsa, tarixiy tajribasi mustamlaka bosqichlarini boshidan kechirgan va o'z mustaqilligini yangi tiklagan mamlakatlar uchun milliy o'zlikni anglash, uni tiklash va uni ijtimoiy ongda mustahkamlash jarayoni bugungi kunning dolzarb muammolaridan biriga aylanmoqda. Bu jarayonda ekologik tafakkur va salomatlik qadriyatları nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning, balki milliy-ma'naviy uyg'onishning ham ajralmas tarkibiy komponenti sifatida ko'rilmoxda.

Milliy o'zlikni tiklash — bu ijtimoiy ongda tarixiy xotirani qayta tiklash, madaniy-milliy qadriyatlarni yangicha idrok etish, global ta'sirlarga nisbatan ichki immunitetni mustahkamlash va, eng muhimi, milliy mafkuraning ichki mohiyatini zamonaviy paradigmalarga uyg'unlashtirishni nazarda tutadi. Bu jarayon o'z-o'zidan sodir bo'lmaydi; balki

u turli ijtimoiy-falsafiy, siyosiy va ekologik omillar ta'siri ostida shakllanadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, ekologik tafakkur va salomatlik qadriyatları milliy o'zlikni tiklashda g'oyaviy-axloqiy tayanch sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ekologik tafakkur deganda insonning tabiatga, atrof-muhitga, ekologik tizimlarga va ularning ichki uyg'unligiga nisbatan shakllangan ongli, axloqiy, falsafiy va ijtimoiy pozitsiyasi tushuniladi. Bu tafakkur shakli insonni tabiatning hukmdori emas, balki uning ajralmas bir bo'lagi sifatida tasavvur etishni talab qiladi. Ushbu yondashuv qadim Sharq tafakkurida o'z aksini topgan bo'lib, unda inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlik asosiy hayotiy tamoyil hisoblangan. Biroq XX asrda G'arbda shakllangan antropotsentrik paradigmaning jadal tarqalishi, tabiatga utilitar va texnokratik munosabatning kuchayishi ekologik muvozanatning izdan chiqishiga olib keldi. Shu sababli, bugungi davrda ekologik tafakkur insoniyatni o'zlikni qayta anglashga, ma'naviy poklanishga va barqaror rivojlanishga yetaklovchi strategik fikrlash shakliga aylanmoqda. Salomatlik qadriyatları esa inson salomatligini faqat fiziologik omillar bilan emas, balki psixologik, ijtimoiy, madaniy va ekologik omillar bilan uzviy bog'liq holda idrok etishni talab qiladi. Zamonaviy sog'liq falsafasi salomatlikni — biologik organizm holati emas, balki shaxs va jamiyat o'rtasidagi sog'lom munosabatlar majmuasi, ijtimoiy muvozanat va psixik barqarorlik darajasi sifatida talqin etadi. Aynan shu yondashuv milliy salomatlik siyosatining zamonaviy paradigmalarini belgilab beradi. Masalan, YuNISEF (2023) hisobotiga ko'ra, O'zbekistonda bolalar salomatligi ko'rsatkichlari atrof-muhit sifatiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lib, ekologik jihatdan iflos hududlarda bolalar o'limi darajasi ekologik jihatdan toza hududlarga nisbatan 1,8 barobar yuqori ko'rsatkichni tashkil qilgan[1]. Ayni paytda, salomatlik qadriyatları va ekologik tafakkur o'zaro bir-birini to'ldiruvchi tizim sifatida faoliyat yuritadi. Bunday uyg'unlik ekologik axloq shakllanishini ta'minlaydi, ekologik sog'lom muhit yaratishga bo'lgan ehtiyojni kuchaytiradi, milliy salomatlik strategiyalariga asos bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan "Yashil makon", "Sog'lom turmush – sog'lom avlod", "Ekologik ta'lim va tarbiyani rivojlantirish" kabi milliy dasturlar ana shunday integratsiyalashgan yondashuvlarni ifodalaydi. Bu jarayon milliy o'zlikni tiklash jarayonining ham madaniy, ham siyosiy, ham axloqiy darajadagi yuksalishini ko'rsatadi. Milliy o'zlikni tiklashda ekologik tafakkur va salomatlik qadriyatlarining o'rni avvalo, ularning ontologik mohiyatiga, ya'ni jamiyat hayotida tutgan fundamental o'rniga borib taqaladi. Insonning ekologik tafakkuri uning dunyoqarashi, hayotga, o'z sog'lig'iga, jamiyatga bo'lgan munosabatida namoyon bo'ladi. Bu munosabatlar zanjiri esa millatning umumiy axloqiy holatini, madaniy identitetini va ijtimoiy uyg'unligini belgilaydi. Shu sababli, ekologik tafakkur va salomatlik qadriyatları milliy ong, milliy ruh va milliy tafakkur kabi konseptual kategoriyalar bilan bevosita aloqadordir. Jamiyatda ekologik ongning shakllanishi — bu milliy madaniyatning barqarorligini ta'minlash yo'lidagi muhim qadamlardan biridir. Tarixiy jihatdan olganda, o'zbek xalqi tabiatga nisbatan mehr-muhabbat, tabiat ne'matlaridan oqilona foydalanish, muhitni asrash kabi qadriyatlarni asrlar davomida shakllantirib kelgan. Avestoda, masalan, yerga, suvg'a, havoga ifloslik keltirgan har qanday harakat axloqiy jinoyat sifatida talqin etiladi. Islomiy axloq tizimida ham tabiatni muhofaza qilish insonning imonidagi muhim ko'rsatkichlardan biri sifatida qayd etilgan. Biroq sovet davrida amalga oshirilgan ideologik bosim, sun'iy urbanizatsiya, tabiat resurslarini haddan ortiq ekspluatatsiya qilish natijasida bu qadriyatlар yo'qolish xavfi ostida qoldi. Aral dengizi fojiasi bunga yorqin misoldir. Bu ekologik falokat nafaqat tabiatga, balki xalq salomatligiga, ijtimoiy ruhiyatga va milliy g'ururga katta zarba berdi. Shu tariqa, ekologik tafakkur tanazzuli

milliy o'zlik inqirozini ham yuzaga keltirdi[2]. Bugungi kunda esa bu yo'qotilgan qadriyatlarni tiklash, ekologik ong va sog'lom hayot falsafasini rivojlantirish milliy o'zlikni qayta barpo etish harakatining muhim yo'nalishiga aylanmoqda. Bu jarayonda nafaqat davlat siyosati, balki ilm-fan, ta'lim, madaniyat va fuqarolik jamiyati institutlarining faol ishtiroki muhim rol o'ynaydi. Ayniqsa, ekologik ta'limning barcha bosqichlarda yo'lga qo'yilishi, sog'lom turmush tarzi targ'iboti, ekologik innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash milliy o'zlikni mustahkamlovchi muhim ijtimoiy mexanizmlar sifatida shakllanmoqda. Zamonaviy ilmiy yondashuvlar ham ekologik tafakkur va salomatlik qadriyatlarini yagona g'oyaviy-madaniy tizim sifatida ko'rib chiqmoqda[3]. Shu jumladan, ekologik sotsiologiya, barqaror rivojlanish falsafasi, ekologik antropologiya, sog'liqni saqlash etikasi kabi fanlar bu ikki konsepsiyaning o'zaro uyg'unligini chuqur tahlil qilmoqda. Masalan, nemis olimi U. Bek "Xavf jamiyati" asarida zamonaviy jamiyatning asosiy muammolaridan biri sifatida ekologik xavf va sog'liq tahdidlarini ko'rsatadi va bu xavflarga qarshi kurashda ijtimoiy ongni yuksaltirish zarurligini urg'ulaydi. Mahalliy olimlar — D. Eganova, Z. Islomova, Sh. Qodirov singari tadqiqotchilar ham ekologik madaniyatni shakllantirishda milliy qadriyatlar va salomatlik ideallarining sintezini ilgari surmoqda[4]. Milliy o'zlikni tiklash jarayoni bugungi murakkab, ko'p qatlamlı, ijtimoiy-falsafiy, ekologik va sog'liqni saqlash muammolari fonida yangicha kontseptual yondashuvlarni talab etadi. Ekologik tafakkur va salomatlik qadriyatları ana shunday konseptual ustunlardan biri sifatida namoyon bo'lib, ular milliy g'oya, milliy madaniyat va ijtimoiy ongning yangi shaklini yaratishda tayanch g'oyaviy vositaga aylanmoqda. Shu bois, mazkur tezis doirasida ekologik tafakkur va salomatlik qadriyatlarining milliy o'zlikni tiklashdagi o'rni keng qamrovli falsafiy, sotsiologik, tarixiy va madaniy kontekstlarda tahlil etiladi.

Bugungi kun ijtimoiy-falsafiy tafakkurida milliy o'zlik masalasi mutlaq yangicha mazmun kasb etmoqda. Bunga sabab — zamonaviy dunyodagi ijtimoiy, madaniy va ekologik inqirozlarning tobora murakkab tus olayotgani, shuningdek, inson hayoti sifatini ta'minlovchi qadriyatlar tizimining izdan chiqishidir. Ayniqsa, global mashhuv jarayonlari kuchaygan, madaniy birkillashuv tahdidi ortgan va ekologik xavflar tobora ko'proq inson salomatligiga ta'sir qilayotgan bir sharoitda, har bir mustaqil davlat va xalq uchun o'zligiga qaytish, tarixiy ildizlarini anglash, ijtimoiy ongda milliy identitetni mustahkamlash dolzarb vazifaga aylangan. Shu jihatdan olganda, milliy o'zlikni tiklash jarayonida ekologik tafakkur va salomatlik qadriyatlariga tayanish — bu nafaqat mafkuraviy ehtiyoj, balki ijtimoiy barqarorlik va taraqqiyotning zaruriy sharti hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar, ayniqsa, "Yangi O'zbekiston" g'oyasi doirasida ilgari surilayotgan g'oyaviy yo'nalishlar, fuqarolarning sog'lom turmush tarzi, ekologik xavfsizlik, milliy madaniyat va barqaror taraqqiyot o'rtaсидаги узвишликни mustahkamlashga qaratilgan. Prezident Sh.M. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Biz xalqimizning o'z tarixiy ildizlari, qadimiy qadriyatları va zamonaviy taraqqiyot tamoyillariga tayangan holda sog'lom jamiyat qurmoqdamiz" [5]. Demak, salomatlik va ekoliya bugungi kunda faqat sog'liqni saqlash muammosi emas, balki millat ma'naviyatini, o'zlikni va istiqbolni belgilovchi asosiy g'oyaviy mezonga aylanmoqda. Ekologik inqirozning inson salomatligi va ijtimoiy ongga ko'rsatadigan tahdidi ham ushbu mavzuni jahon miqyosida dolzarb etib qo'ymoqda. BMTning 2023-yilgi "Global atrof-muhit va sog'liq" hisobotida ta'kidlanishicha, har yili 13 milliondan ortiq o'lim holati to'g'ridan-to'g'ri atrof-muhit ifloslanishi, iqlim o'zgarishi, suv sifatsizligi va havoning zaharlanishi bilan bog'liq[6]. Shu bilan birga, global sog'liq inqirozi tobora ko'proq axloqiy, madaniy va g'oyaviy asoslar

etishmasligi bilan izohlanmoqda. Bunday sharoitda ekologik tafakkur va sog'liq qadriyatlari milliy ongda asosiy strategik qadriyat sifatida qaralmoqda. O'zbekiston sharoitida bu masalaning dolzarbliyi yana ham chuqurroqdir. Birinchidan, mamlakatimiz ekologik xavfli zonalardan biri — Aralbo'yи hududida joylashgan bo'lib, ushbu mintaqada yuzaga kelgan ekologik falokatlar millionlab aholining salomatligiga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ikkinchidan, sanoat chiqindilar, ichimlik suv sifati, qishloq xo'jaligida kimyoviy vositalardan foydalanish kabi holatlar atrof-muhit muammolarini yanada keskinlashtirmoqda. O'zStatKom (2023) ma'lumotlariga ko'ra, Toshkent va Farg'ona vodiysi hududlarida havo sifati indeksi yilda o'rtacha 22% ortib bormoqda. Bu esa bevosita aholining nafas yo'llari, yurak-qon tomir tizimi, allergik kasalliklar va hatto onkologik holatlardagi o'sish bilan bog'liq. Bundan tashqari, milliy o'zlikni tiklash jarayonida yosh avlodning ekologik savodxonligi va sog'lom hayot falsafasiga munosabati alohida o'rinn tutadi. Yoshlar orasida texnogikatsiyalashgan turmush tarzining kuchayishi, virtual olamda haddan ortiq vaqt o'tkazish, noto'g'ri ovqatlanish va harakatsizlik tufayli sog'liq muammolari ko'paymoqda. Bu holat esa ekologik va sog'liq qadriyatlari bilan uyg'unlashgan milliy madaniyat va axloqni shakllantirish zaruriyatini oshiradi. Ma'lumotlarga ko'ra, 16-25 yosh oralig'idagi yoshlarning 49 foizi sog'lom turmush tarzini to'liq tushunmasligini bildirgan, 37 foizi esa ekologik tahdidlarni hayotiy xavf deb hisoblamaydi [7]. Demak, ekologik tafakkur va salomatlik qadriyatlarni yoshlikdan shakllantirish, bu qadriyatlarni milliy o'zlikni mustahkamlovchi omilga aylantirish bugungi kunning asosiy vazifasidir. Mavzuning dolzarbliji, shuningdek, barqaror taraqqiyot maqsadlariga (SDG) erishish bilan ham bog'liq. Xususan, SDG-3 ("Sog'lijni ta'minlash"), SDG-6 ("Toza suv va sanitariya"), SDG-13 ("Iqlim o'zgarishiga qarshi kurash") va SDG-15 ("Yer resurslarini muhofaza qilish") bo'yicha O'zbekiston zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlar ham ekologik tafakkur va salomatlik qadriyatlarni milliy siyosat va mafkuraning ajralmas bo'lagiga aylantirishni taqozo etmoqda. "Milliy o'zlikni tiklash jarayonida ekologik tafakkur va salomatlik qadriyatlari" mavzusi bugungi kunda bir vaqtning o'zida falsafiy, ijtimoiy, g'oyaviy va amaliy jihatdan o'ta dolzarbdir[8]. Bu masala orqali biz nafaqat ijtimoiy barqarorlik va sog'lom jamiyatga erishish yo'lini ko'ramiz, balki milliy o'zligimizni ekologik ong bilan uyg'unlashtirilgan holda qayta tiklash, zamonaviy xavf-xatarlarga qarshi kuchli madaniy va ma'naviy immunitet shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lamiz. Shu jihatdan, mazkur mavzu milliy tiklanishning strategik yo'nalishlaridan biri sifatida ilmiy va amaliy e'tibor markazida bo'lishi lozim.

Bugungi kunda ekologik tafakkur va salomatlik qadriyatlarni shakllantirish va rivojlantirish borasida nafaqat xalqaro miqyosda, balki O'zbekiston Respublikasida ham chuqur tizimli islohotlar olib borilmoqda. Ushbu islohotlar global iqlim o'zgarishi, ekologik xavfsizlik, ijtimoiy salomatlik, milliy identitet va madaniy barqarorlikni o'zaro uyg'un holda rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, ular har bir fuqaroning ekologik ongini shakllantirish, sog'lom hayot falsafasini targ'ib qilish hamda barqaror taraqqiyot asoslarini mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Shu ma'noda, amalga oshirilayotgan davlat siyosati, qabul qilinayotgan qonunlar, milliy dasturlar, xalqaro hamkorlik va fuqarolik jamiyatni institutlarining faolligi ekologik va salomatlik qadriyatlari bilan uzviy aloqada bo'lgan milliy o'zlikni qayta barpo etishda g'oyaviy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusi bilan 2021-2023 yillarda ekologik barqarorlikni ta'minlash, iqlim o'zgarishlariga moslashish va fuqarolarda ekologik madaniyatni shakllantirishga qaratilgan bir qator strategik

hujjatlar qabul qilindi. Xususan, "Yashil makon" umumxalq loyihasi orqali har yili 200 million tup daraxt ekish tashabbusi ilgari surildi[9]. Ushbu loyiha, bir tomonidan, ekologik holatni yaxshilashni ko'zlasa, ikkinchi tomonidan, ekologik tafakkur madaniyatini ommaviy ongda mustahkamlashga xizmat qilmoqda. Daraxt ekish faqatgina tabiiy muhitni sog'lomlashtirish emas, balki inson va tabiat o'rtasidagi uzviy aloqani qayta tiklash, ekologik estetikani va mas'uliyat hissini shakllantirishning ham ramzidir. Bundan tashqari, 2019-yilda "Atrof-muhitni muhofaza qilish to'g'risida"gi qonunning yangilangan tahriri qabul qilinib, unda ekologik ta'lim va tarbiya alohida ustuvor yo'nalish sifatida belgilandi. Ayni chog'da, 2023-yil "Ekologik madaniyat yili" deb e'lon qilinishi va shu asosda amalga oshirilgan chora-tadbirlar, masalan, mактаблarda "Ekologik darslar" joriy etilishi, oliv ta'limda ekologik mutaxassisliklarning kengaytirilishi, ekologik jurnalistikaga alohida grantlar ajratilishi, bu sohani har tomonlama rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-dekabrdagi 674-son qarori asosida "Ekologik ta'lim konsepsiysi" tasdiqlanishi ushbu sohani ilmiy-nazariy va metodik asoslar bilan boyitdi[10]. Salomatlik qadriyatlarini rivojlantirish sohasida esa, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, profilaktik tibbiyot va psixologik barqarorlikni ta'minlash, jismoniy va ruhiy salomatlikni mustahkamlashga qaratilgan islohotlar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

Xulosa: Milliy o'zlikni tiklash — bu nafaqat tarixiy, madaniy va ma'naviy merosga qaytish jarayoni, balki zamonaviy tahdidlar, ijtimoiy muammolar va ekologik inqirozlar sharoitida milliy taraqqiyot yo'lini yangicha mazmunda shakllantirishdir. Ushbu tezisda qayd etilganidek, ekologik tafakkur va salomatlik qadriyatları aynan shu jarayonning ajralmas tarkibiy qismlari sifatida o'r ganilishi zarur. Zero, jamiyatda ekologik ongning shakllanishi, inson va tabiat o'rtasidagi uyg'unlikni tiklash, shuningdek, sog'lom turmush tarzi, ekologik xavfsizlik va bioetika tamoyillariga asoslangan ijtimoiy hayot modeli — milliy o'zlikning falsafiy, axloqiy va g'oyaviy asosi bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. Xolmatova A., Xayrullaeva X. MILLIY QADRIYATLAR YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI //Pedagogs. – 2025. – T. 81. – №. 1. – C. 41-46.
2. Muruvvat A., Shohbozbek E. O'ZBEKISTONDA MA'NAVIIY VA AHVOQIY QADRYATLARDA MAKTABGACHA TA'LIMNING RO'LI //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 2. – C. 246-253.
3. Nizomiddinov X. MILLIY VA UMUMINSONIY QADRIYATLARNING GLOBALLASHUV SHAROITIDA JAMIYAT HAYOTIDAGI ROLI //Педагогика и психология в современном мире: теоретические и практические исследования. – 2024. – T. 4. – №. 11 (Special Issue). – C. 248-253.
4. Gulbahor O., Shohbozbek E. O'ZBEKISTONDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI ORQALI UZLUKSIZ TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 4. – C. 77-82.
5. Firdavsiy O'tkir o'g A. et al. OILADA SOG 'LOM TURMUSH TARZI SHAKLLANTIRISHDA STRESS OMILLARINING TA'SIRI //YANGI O'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – T. 2. – №. 3. – C. 23-26.
6. Gulhayo M., Shohbozbek E. ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARI ORQALI UZLUKSIZ TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 4. – C. 117-124.

7. Bozorov O. SOG'LOM TURMUSH TARZI–FAROVON HAYOT GAROVI //Conferencea. – 2024. – C. 1-4.
8. Oydinoy M., Shohbozbek E. O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM VA BOSHLANGICH TALIM O'RTASIDA BOLALARNING MANAVIY TARBIYANING UZVIYLIGI //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 4. – C. 125-131.
9. Ергашбаев Ш. O'zbekiston sharoitida uzluksiz ta'lim tizimi orqali yoshlarning ma'naviy dunyoqarashini rivojlantirish //Объединяя студентов: международные исследования и сотрудничество между дисциплинами. – 2025. – Т. 1. – №. 1. – С. 314-316.
10. Zaynabxon S., Shohbozbek E. MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING ESTETIK DIDINI SHAKLLANTIRISHDA UZLUKSIZ MA'NAVIY TARBIYANING ROLI //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 3. – C. 187-197.

**YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR
VI RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2025-yil, avgust

Mas'ul muharrir:

F.T.Isanova

Texnik muharrir:

N.Bahodirova

Diszayner:

I.Abdihakimov

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
VI Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.1-jild, 6-son (avgust, 2025-yil). – 177 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2025-yil, 7-avgust

Barcha huqular himoyalangan.

© Science problems team, 2025-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2025-yil.